

O‘ZBEK EPOSSHUNOSLIGINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI**Xakimova Maxsudaxon G‘ofurjon qizi**Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Tibbiyotda tillarni o‘qitish kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbek eposshunosligining mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanish va taraqqiyot bosqichlari chuqur tahlil qilingan. Unda XX asr boshidagi jadidchilik harakati vakillari, xususan, Abdurauf Fitrat va Vadud Mahmudning eposshunoslikka oid nazariy qarashlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada Fitratning adabiyotni “yozma” va “el adabiyoti”ga ajratish, shuningdek, dostonlarning “fasihlik” mezonini ilmiy muomalaga kiritishi bu soha uchun konseptual poydevor yaratganligi asoslangan. Shuningdek, 1920-30-yillarda Go‘zi Olim Yunusov va Hodi Zarifov boshchiligida o‘tkazilgan ilk folklor ekspeditsiyalarining amaliy ahamiyati yoritilgan. Ushbu ekspeditsiyalar baxshilar ijrosini o‘zgarishsiz, bevosita yozib olish metodologiyasini joriy etish orqali xalqning epik merosini saqlab qolishga xizmat qilgani ko‘rsatilgan.

Tayanch so‘zlar. Eposshunoslik, folklorshunoslik, jadidchilik, folklor ekspeditsiyasi, baxshichilik an‘analari, V.V. Radlov, Abdurauf Fitrat, Hodi Zarif, G‘ozi Olim Yunusov, “Alpomish” dostoni, milliy o‘zlik, “fasihlik”, og‘zaki ijro.

Аннотация. В данной статье глубоко анализируются этапы формирования и развития узбекского эпосоведения как самостоятельной научной дисциплины. В ней рассматриваются теоретические взгляды на эпосоведение представителей движения джадидизма начала XX века, в частности Абдурауфа Фитрата и Вадуда Махмуда. В статье обосновывается, что разделение Фитратом литературы на «письменную» и «народную» (el adabiyoti), а также введение в научный оборот критерия «красноречия» (fasihlik) дастанов создали концептуальную основу для данной сферы. Также освещается практическое значение первых фольклорных экспедиций, проведенных в 1920–1930-х годах под руководством Гази Алима Юнусова и Хади Зарифова. Показано, что данные экспедиции послужили сохранению эпического наследия народа путем внедрения методологии непосредственной записи исполнения бахши без изменений.

Ключевые слова: эпосоведение, фольклористика, джадидизм, фольклорная экспедиция, традиции бахши, В. В. Радлов, Абдурауф Фитрат, Хади Зариф, Гази Алим Юнусов, дастан «Алпомыш», национальная идентичность, «красноречие» (фасихлик), устное исполнение.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the stages of formation and development of Uzbek epic studies as an independent scientific discipline. It examines the theoretical views on epic studies of the representatives of the Jadid movement of the early 20th century, particularly Abdurauf Fitrat and Vadud Mahmud. The article substantiates that Fitrat's division of literature into "written" and "folk literature" (el adabiyoti), as well as his introduction of the criterion of "eloquence" (fasihlik) of epics into scientific discourse, created a conceptual foundation for this field. Furthermore, the practical significance of the first folklore expeditions conducted in the 1920s and 1930s under the leadership of Gozi Olim Yunusov and Hodi Zarifov is highlighted. It is shown that these expeditions served to preserve the epic heritage of the people by introducing a methodology for directly recording the performances of bakhshis without alterations.

Key words: epic studies, folkloristics, Jadidism, folklore expedition, bakhshi traditions, V. V. Radlov, Abdurauf Fitrat, Hodi Zarif, Gozi Olim Yunusov, "Alpomish" epic, national identity, "eloquence" (fasihlik), oral performance.

O'zbek xalq og'zaki ijodi, ayniqsa, epik janrlar xalqning ko'p asrlik tarixiy xotirasini, mentalitetini va estetik tafakkurini aks ettiruvchi noyob hodisa hisoblanadi. Epos janrlarining taraqqiyoti, ularning qahramonlik, romantik va tarixiy yo'nalishlarda shakllanishi, shuningdek, baxshichilik an'analarining uzviy rivojlanishini tadqiq qilish bugungi folklorshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, xalq og'zaki ijodiga, xususan, epos janriga munosabat tubdan o'zgardi. Ilgari sovet mafkurasi asosida yondashilgan epos namunalari endi milliy o'zlik, tarixiy xotira va ma'naviy merosning ifodachisi sifatida qayta talqin qilina boshlandi. Bu jarayon davlat siyosatida ham o'z aksini topdi. Mustaqillik yillarida "Alpomish" dostonining 1000 yillik yubileyi nishonlanishi bu yo'nalishdagi dastlabki yirik qadamlardan biri bo'ldi.

Yangi O'zbekistonda ham xalq og'zaki ijodini tadqiq va targ'ib qilish, jumladan, baxshichilik san'atini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Agar biz bu noyob san'atni saqlab qolish uchun bugun barchamiz birgalikda harakat qilmasak, afsuski, kech bo'ladi, kelgusi avlodlar, tarix bizni kechirmaydi". Zotan, boshqa qardosh turkiy xalqlar folklori kabi o'zbek xalqining epik merosini, uning mustaqillik davri taraqqiyot tamoyillarini fundamental darajada tadqiq qilish folklorshunoslik ilmidagi o'z yechimini kutayotgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mustaqillikdan so'ng ilmiy adabiyotlarda ham eposning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatiga e'tibor kuchaydi. T.Mirzayevning fikricha, dostonlar orqali xalqning dunyoqarashi, orzu-umidlari, ijtimoiy g'oyalari, ma'naviy-axloqiy mezonlari va ezgulikka intilishi namoyon bo'ladi. Ushbu tadqiqot o'zbek xalqining epik merosini, uning mustaqillik davridagi taraqqiyot tamoyillarini va xususiyatlarini o'rganish maqsadiga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda o'zbek eposshunosligining mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanishiga turtki bo'lgan ijtimoiy-madaniy va ilmiy omillar tahlil qilinadi. O'zbek eposining taraqqiyot yo'li shartli ravishda bosqichlarga ajratilib, har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklari ochib beriladi. Tadqiqotda Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud, G'ozzi Olim Yunusov va Hodi Zarifov kabi olimlarning ilmiy merosiga tayanilgan.

O'zbek xalq og'zaki ijodining dastlabki yozma shaklda qayd etilishi XIX asrning ikkinchi yarmida V.V. Radlovning ilmiy-etnografik ekspeditsiyalari bilan bog'liq. Uning "Proben der Volksliteratur der türkischen Stämme" nomli asarining uchinchi jildida ("Die Sarten") o'zbek xalqidan to'plangan ertak, maqol va epik rivoyatlar o'zbek va nemis tilida nashr etilgan. Bu materiallar o'zbek eposshunosligining shakllanishida muhim ilk bosqich bo'lib, og'zaki ijodning yozma shaklga o'tishidagi ilk ilmiy yondashuv namunasi hisoblanadi. Radlov boshlagan bu jarayonni XX asrning 20-40-yillarida Hodi Zarif va V.M. Jirmunskiylar tizimli ravishda davom ettirganlar. O'zbek eposshunosligining shakllanishida XX asr boshidagi jadidchilik harakati muhim rol o'ynagan.

Abdurauf Fitrat rahbarligida tuzilgan "Chig'atoy gurungi" to'garagi xalq og'zaki ijodiy merosini to'plash ishlarini boshlab berdi. Fitrat o'zining "O'zbek adabiyoti namunalari" kitobida adabiyotni "yozma" va "el adabiyoti"ga ajratadi. U dostonlarni shakl va uslub nuqtai nazaridan ikki guruhga bo'lib, og'zaki baxshilik an'anasi mahsuli bo'lgan dostonlarni ("Alpomish") "fasih", ya'ni jonli xalq tiliga xos deb baholagan. Fitratning bu qarashlari og'zaki matn yozuvga ko'chirilganda o'z autentikligini yo'qotishini ko'rsatib, matnshunoslikda muhim nazariy poydevor yaratdi. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud ham folklorshunoslikka katta hissa qo'shgan. U "el adabiyoti"ning egasi "xalqdir", deb ta'kidlagan. Uning adabiyotni "el adabiyoti" (folklor) va "yozma adabiyot"ga ajratishi folkloristikani mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishiga turtki bo'ldi.

XX asrning 20-yillarida boshlangan ilk folklor ekspeditsiyalari o'zbek og'zaki eposini yo'qolishdan saqlab qolish uchun o'ta dolzarb bo'lgan.

G'ozim Olim Yunusov va Hodi Zarifov kabi fidoyi olimlar o'zbek folklorini bevosita baxshilardan, ularning jonli ijrosi paytida, hech qanday o'zgartirishlarsiz yozib olish metodologiyasini joriy qildilar. Bu yondashuv folklorga statik matn sifatida emas, balki jonli ijro hodisasi sifatida qarashni boshlab berdi. Hodi Zarifning ekspeditsiyalar paytidagi mashaqqatli mehnati va baxshilar bilan chuqur insoniy aloqa o'rnatishi (masalan, Po'ltan shoir bilan bog'liq voqea) bu ishning naqadar murakkab va fidoyilik talab qilganini ko'rsatadi.

O'zbek eposshunosligining shakllanishi bir-birini to'ldiruvchi ikki asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Jadidchilik davri (XX asr boshlari): Bu davrda epos mafkuraviy "ovunchoq" darajasidan ko'tarilib, milliy g'urur va o'zlikni anglash manbai sifatida baholandi. Fitrat va Vadud Mahmud folklorni o'rganishning nazariy asoslarini qayd etdilar, "fasihlik" kabi ilmiy mezonlarni keltirganlar.

2. Ekspeditsiya davri (XX asr 20-30-yillar): Bu bosqichda G'ozim Olim Yunusov va Hodi Zarifov nazariy poydevorni amaliyotda qo'llab, epos namunalarini tizimli ravishda to'pladilar. Ular baxshilar ijodini bevosita, o'zgarishlarsiz yozib olish orqali xalqning ma'naviy merosini saqlab qoldilar. Bu fidoyilik natijasida Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li kabi o'nlab baxshilar repertuaridagi noyob dostonlar (masalan, "Alpomish", "Yusuf va Ahmad") ilmiy fondga kiritildi.

Bizga ma'lumki, Hodi Zarif va uning safdoshlari baxshilar bilan shunchaki ilmiy munosabatda emas, balki chuqur insoniy hurmat va do'stlik rishtalarini bog'laganlar. Bu dono mo'ysafidlar bilan, — deb eslagandilar keyinchalik Hodi Zarif, — juda yaqin, qadrdon bo'lib ketdim. Hatto ota-o'g'il maqomida edim. Men ularga Ergash ota, Fozil ota deya murojaat qilardim. Ular meni o'g'lim deya alqardilar... Ular meni, tog'am G'ozim Olim Yunusov ta'biri bilan aytganda, "el tanish ishiga yetaklagan xalq donishmandlaridir". "Aynan shunday ruhiy yaqinlik tufayli baxshilar o'z repertuarlaridagi eng nodir asarlarni, ijrochilik sirlarini yosh olimga ishonch bilan bag'ishlaganlar. Dala tadqiqotlarida informant bilan o'rnatilgan chuqur insoniy aloqa va o'zaro hurmat har qanday texnik vositadan ko'ra samaraliroqdir.

Ilk folklorshunoslar G'ozim Olim Yunusov, Hodi Zarif, Mahmud Zarifovlar doston ijrosining mexanik jarayon emasligini, baxshi har ijroda asarni qaytadan yaratishini teran anglashgan. Ular baxshining ijodiy mahorat olamini bilishga, uning improvizatsiya va badiiy mahoratini kuzatishga intilishgan.

Mustaqillik davrida eposshunoslik o'zbek xalqining ma'naviy merosini tadqiq qilishda yangi, ilmiy va milliy g'oyalarga asoslangan bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonda dostonlarning poetikasi, strukturasi, ijro maktablari va baxshilarning ijodiy xususiyatlari chuqur o'rganilishi boshlandi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek eposshunosligining mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanishi XX asr boshlarida jadidlar tomonidan qo'yilgan nazariy poydevor va 20-30-yillarda fidoyi folklorshunoslar tomonidan amalga oshirilgan amaliy ekspeditsiyalarning mantiqiy natijasidir. Bu zotlar eposni xalqning milliy g'ururi va o'zlikni anglash manbai darajasiga olib chiqdilar.

Bugungi kunda ham o'zbek eposshunosligi ushbu ma'rifatparvarlar belgilab bergan yo'ldan borar ekan, ularning qarashlari nafaqat tarixiy fakt, balki dolzarbligini yo'qotmagan muhim metodologik qo'llanma ekanini tan olish lozim. Ularning mehnati tufayli o'zbek

xalqining asrlar davomida shakllangan epik merosi saqlanib qoldi va hozirgi avlodga yetkazildi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг халқаро бахшичилик фестивалида сўзлаган нутқи. – Термиз шаҳри, 2019 йил, 5 апрель.
2. Радлов В. В. Proben der Volkslitteratur der türkischen Stämme. Dritter Band. Die Sarten. – SPb.: Commissionäre der Kaiserlichen Akademie der Wissenschaften: Eggers et Comp., 1876. – 408 с
3. Istiqlol qahramonlari. Abdurauf Fitrat, Tanlangan asarlar (darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar) Toshkent «Ma'naviyat» 2009 290 bet.
4. Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. — М.: Гос. изд-во худ. лит-ры, 1947. — 396 с.
5. T.Mirzayev “Hodi Zarif suhbatlari”. Toshkent-2013. “SHAMS-ASA” nashriyoti. 382 bet.